

IQON SHEVASIDA KO‘PLIKNI IFODALOVCHI SHAKLLAR

Xidraliyeva Zoxira Riskulovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

katta o‘qituvčisi

+998994896735

E-mail: zaxira.999@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilining Iqon shevasida kuzatiladigan ko‘plik shakli va uning variantlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy til, Iqon shevasi, turkiy til, sheva, ko‘plik, variant, singarmonizm, morfologik shakl, asos, affiksi.*

Аннотация. В данной статье рассматривается множественное число и его варианты, которые наблюдаются в иканском говоре узбекского языка.

Ключевые слова: *литературный язык, иканский говор, тюркский язык, диалект, множественное число, вариант, сингармонизм, морфологическая форма, основа, суффикс.*

Abstract. In this article, we will consider the plural form and its variants, which are observed in the Ikan dialect of the Uzbek language.

Key words: *literary language, Ikan dialect, Turkis language, dialect, plural, variant, singarmonism, morphological form, basis, suffix.*

Ma’lumki, o‘zbek adabiy tilida ko‘plikni hosil qiluvchi yagona morfologik shakl *-lar* affiksi bo‘lsa, boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi shevalarimizda uning *-lär, -lar, -när, -nar, -nää, -är, -ä, -lä, -la, -där, -dar, -tär, -tar* fonetik variantlari juda ko‘p [Ashirboyev. 2021:47]. Masalan, Toshkent shevasida *-lä* (*āpäm lä*), *-ä* (*bizä*), Parkent shevasida *-är* (*bizär, sizär*), Namangan shevasida -

nä (*kelijnä*), Xorazm shevalarida *-la* (*atamla*), qipchoq shevalarida *-nar* (*adamnar*), *-när* (*künnär*), *-dar* (*qızdar*), *-där* (*bizdär*), *-tar* (*attar*), *-tär* (*ittär*) va hokazo variantlari mavjud. Bunga sabab o‘zbek tili shevalarining turli-tumanligi va affikslarga turli fonetik hodisalarining ta’siri natijasidir. Shevalarda variantlarning qo‘llanish doirasi ham turlichalib, o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarida adabiy orfografiyasi *-lar* affiksining *-dar*, *-där*, *-nar*, *-när*, *-tar*, *-är* variantlari mavjud bo‘lib, ular turli fonetik pozitsiyalarda qo‘llanadi.

Jumladan, Turkiston qipchoq va o‘g‘uz tip shevalarda sonor *m*, *n*, *η* undoshlaridan so‘ng, o‘zakning qattiq, yumshoqligiga qarab, *-nar*, *-när* variantlari ishlataladi. Turkiston shahar shevasida faqat *n*, *η* undoshlaridan so‘ng *-nar*, *-när* shakli qo‘llanib, *m* undoshidan so‘ng esa *-lar* shakli bilan ifodalanadi.

Chimkent gruppa qarluq tip shevalarida esa ko‘plik shaklining *-nar*, *-när* variantlari faqat sonor *η* undoshi bilan tugagan asosgagina qo‘shiladi, *m*, *n* bilan tugagan asoslarga esa *-lar* affiksi qo‘shiladi.

Jumladan, o‘zbek tilining Iqon shevasida singarmonizm qonuni amalda saqlaganligi uchun ko‘plikning old va orqa qator *-lar*, *-läär*, *-nar*, *-när*, *-är* hamda *-lar+lar* shaklidagi qo‘sh ko‘plik variantlari qo‘llanishi kuzatiladi. Ko‘plikni hosil qiluvchi affiks asosdagi unlilirning qattiq-yumshoqligi hamda asosning sonor tovushlar bilan tugashiga qarab qo‘shiladi.

-läär affiksi o‘zbek adabiy tili va barcha o‘zbek shevalari uchun xos bo‘lib, biz o‘rganayotgan shevada old qator unlilir ishtirok etgan asosga qo‘shiladi. Masalan: *kö:čälär*, *kämpirlär*, *ö:jlär*, *i:tlär*, *mä:lälär*, *i:şlär* kabi. *Mä:lämizdä je:ηdin salinyan ö:jlär jä: köp. Ha:zır ö:lgän jerdäjäm qirq künnä:p o:türadıyan kä:mpirlär jo:q.*

-lar affiksi tarkibida orqa qator unlilar bo‘lgan asosga qo‘shiladi: Masalan: *ba:llar*, *qii:zlar*, *ma:llar*, *qollar*, *ta:llar*, *ba:ylar*, *atlar*, *to:jlar*, *o:rtaqlar*,

ma:lčilar kabi. Ba:llar ha:lī, ö:jgä kä:gäjo:q. Ā:ttäŋ i:štin kä:läsa:p ma:llarya qaradī.

n burun sonori bilan tugagan asosga ko‘plikning *-nar*, *-när* shakli qo‘shiladi. Bunda asosdagi oxirgi *n* tovushi va affiksning birinchi tovushi *l* moslashishi natijasida to‘liq assimilatsiya yuzaga keladi. Masalan, *na:n+lar>na:nnar*, *jīyīn+lar>jīyīnnar*, *kä:lin+lär>kä:linnär*, *tün+lär>tünnär* kabi.

m, η burun sonorlari bilan tugagan so‘zlarda ham xuddi shu holat, faqat to‘liqsiz assimilatsiya yuzaga keladi. Masalan, *a:dam+lar>a:damnar*, *käjim+lär>käjimnär*, *xa:laŋ+lar>xa:laŋnar*, *hä:mäm+lär>hä:mämnär* kabi.

-när affiksi **n**, **m**, **η** burun sonorlari bilan tugagan yumshoq asoslarga qo‘shiladi: *kä:linnär*, *hä:mämnär*, *kä:ηnär*, *küliŋnär*, *je:ηnär*, *ičiŋnär*, *kö:rgännär*, *tünnär* kabi. *Hä:mmä i:š kä:linnärgä qa:p ke:tti*. *Kö:rgännärgä sa:lam e:t*.

-nar affiksi **n**, **m**, **η** burun sonorlari bilan tugagan qattiq asoslarga qo‘shiladi: *ajto:mnar*, *xa:laŋnar*, *tayamnar*, *a:yamnar*, *ba:bamnar*, *ba:baŋnar* *a:damnar*, *jīyīnnar*, *bariŋnar*, *o:jnaŋnar*.

Shevada **n**, **m**, **η** burun sonorlaridan so‘ng *-när*, *-nar* affikslarining kelishi qat’iy bo‘lmay, ba’zi hollarda *-lar*, *-lär* bilan parallel qo‘llanishi ham kuzatiladi. Masalan: *käjimnär//käjimlär*, *a:pamnar//a:pamlar*, *me:ma:nnar//me:ma:nlar*, *künnär//künlär*, *be:ηnär//be:ηlär*, *a:ηnar//a:ηlar* kabi.

Q. Muhammadjonov Turkiston gruppa shevalarining barchasida o‘zak jarangsiz undosh *q*, *k*, *sh*, *x*, *t* tovushlari bilan tugasa, ko‘plik affiksi so‘nggi undosh tovushlarning ta’siriga berilib, jarangsiz *-tar//tär* formasida birikishini qayd etadi hamda Chimkent gruppa qarluq tip shevalarida ushbu fonetik pozitsiyalarda *-lar*, *-lär* shakli qo‘llanishini ta’kidlaydi. Iqon shevasi Turkiston guruh o‘g‘uz tip shevalaridan biri sifatida unda yuqoridaagi fonetik pozitsiyalarda ko‘plikning *-tar//tär* varianti sporadik ravishda ham uchramadi.

Ya’ni, Chimkent gruppasi qarluq tip shevalari hamda adabiy tildagi kabi Iqon shevasida ham ushbu fonetik pozitsiyalarda *-lar*, *-lär* shakli qo’llanadi.

Bulardan tashqari ... Janubiy Qozog’iston o‘zbek shevalarining o‘g‘uz va qipchoq tiplarida faqat z undoshi bilan bitgan o‘zaklarga ko‘plik affiksidan keyin *-dar//där* shaklida birikishi Suzoq, Cho‘loqqa‘rg‘on, Qarnoq, Iqon, Boboyqa‘rg‘on qishloq shevalarida mavjudligi haqida ma’lumot bergen [Muhammadjonov. 1983:16]. Iqon shevasida ko‘plikning *-tar//tär*, *-dar//där* variantlari sporadik ravishda ham uchramadi. Vaholanki, bizning materiallarimizda z undoshi bilan tugagan o‘zaklarga ko‘plik formasining *-dar//där* shakli mutlaqo qo‘silmaydi. Masalan, z undoshi bilan tugagan so‘zlarga *-lar//lär* affiksi qo‘silganda, u o‘z pozitsiyasida mustahkam: *qii:zlarya bar; kü:zlärga barip; kö:zläri jo:lda; ö:zläri kä:di; ju:lduzlarya qarab va h.k.* Bizningcha, bu so‘zlarda “z”ning saqlanishi so‘zning birinchi bo‘g‘inida cho‘ziq unlining qo‘llanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Shevada kishilik olmoshlari *biz*, *siz* I va II shaxs ko‘plikda ifodalanganda o‘ziga xoslik kuzatiladi, ya’ni I shaxs kishilik olmoshiga *-lär* affiksi qo‘silganda *biz+(l)är* shaklida ifodalanadi, ya’ni tovush tushishi kuzatiladi: *Da:lada i:š ba:šlansa, bizärni tapib bo:psis. Bizär mä:ktäpni pitirgändin kä:jin o:qišya Tä:škängä ke:titik.* II shaxs kishilik olmoshi *siz+lär < sillär* tarzida ifodalanadi, bunda asosdagi z undoshi affiks tarkibidagi l undoshiga to‘liq moslashgan va regressiv assimilatsiyaga uchragan: *U gä:zdä sillär Tä:škändä i:dinär. Sillärni uza:qtin kö:rip, ta:nüdim.*

Ayniqsa, *u*, *bu*, *shu* ko‘rsatish olmoshlari *-lar* ko‘plik shaklini olganda, shevada o‘ziga xos xususiyat ko‘rinadi. Mazkur olmoshlar ko‘plikda *-lar* shaklini ketma-ket ikki marta qabul qiladi va qo‘shko‘plikni yuzaga keltiradi: *u+lar+lar< ulallar, bu+lar+lar< bulallar, shu+lar+lar< šulallar* tarzida. Bu o‘rinda birinchi affiks tarkibidagi oxirgi r tovushi ikkinchi affiks tarkibidagi birinchi l tovushiga moslashib, to‘liq regressiv assimilatsiyaga uchragan.

Ulallarni qajtip kö:rgänim jo:q. Hä:mmä i:šni qıladoyon šulallar-da. Bulallar e:tgäniŋni qİMajd.

Janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalaridan Qorabuloq shevasida ham qo‘shko‘plikning qo‘llanishi qayd etilgan va “ Qorabuloq shevasida ko‘rsatish olmoshlari *bul* va *ul* ko‘plik bilan turlanganda o‘zak va affiks orasida bir *a* orttiriladi, ko‘plik affiksi esa to‘liq formasini saqlaydi: *bul+a+lar//ad.orf. bular, ul+a+lar// ad.orf. ular*” tarzida izoh berilgan [Reshetov.1978:149].

Adabiyotlarda *-lar* affiksining egalik affikslari bilan birgalikda (oldin yoki keyin) qo‘llanishiga ko‘ra ular anglatgan ma’nolarda ayrim o‘zgachaliklar kuzatilishi qayd etilgan. Masalan, Toshkent, Xorazm shevalarida *-lar//lär* affiksi egalik affiksidan oldin kelsa ko‘plikni, keyin kelganda esa hurmat ma’nosini ifodalaydi: *ākämlä ketti*(hurmat), *ākälärim ketti*(ko‘plik); *ayamla gäldi*(hurmat), *ayalarim gäldi* (ko‘plik) kabi.

Biz o‘rganayotgan shevada esa, ushbu holatda jamlik ma’nosi tushuniladi: *dädämnr kä:di*(dadasi va uning yonida boshqalar ham borligi anglashiladi) *yoki ajto:ηnar ketti* (opasi va uning yonidagi boshqa kishilar ham anglashiladi). *Ke:škä Ta:jürlarıñkä ö:täsänä?*(Toxir va u bilan boyliq oila a’zolari tushuniladi).

Q. Muhammadjonov *-lar* shaklining funksiyalari haqida to‘xtalib, janubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarida hurmat ma’nosi adabiy til va Toshkent tip shevalardan farqlanishi haqida shunday fikr bildiradi: shevada o‘zakka qo‘shilgan egalik va ko‘plik affikslari tartibining o‘zgarishi affikslar ifoda etgan ma’no xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Agar ikkinchi shaxs egalik qo‘shimchasi ko‘plik affiksidan oldin qo‘shilsa hurmat va ko‘plik ma’nosi anglashiladi. Egalik affiski ko‘plik qo‘shimchasidan keyin qo‘shilsa hurmat emas, ko‘plik ma’nosini anglatadi. Masalan, 1) *annar, nanya qaraŋnar*(olinglar, nonga qaranglar); 2) *allarıñ, nanya qaralarıñ*(ollaring nonga qaralaring)... Keltirilgan birinchi jumlada hurmat va II shaxs ko‘pligi, ikkinchi jumlada faqat ko‘plik ma’nosi borligini qayd etadi. Lekin Iqon shevasi bundan mustasno. Shu bilan

birga, ko‘plik hurmat formasi so‘zlovchiga nisbatan yosh bo‘lib, ko‘pchilikni tashkil etganda ham qo‘llanishini quyidagi jumla orqali ko‘rsatadi: *balalar, bariñnar oquvya keš qa:lib otırmañnar (Iqon)*” [Muhammadjonov. 1983: 19]. Ushbu keltirilgan jumla shevada quyidagicha ifodalanishi lozim: *ba:llar, bariñnar o:qišya ke:š qa:b otırmañnar*. Ko‘rinadiki, misolda ko‘plik ma’nosi ifodalangan, lekin hurmat ma’nosi sezilmaydi.

Iqon shevasida ko‘plik quyidagi xususiyatlari bilan boshqa shevalardan farqlanadi:

1. Shevada singarmonizm qonuni amalda bo‘lganligi sababali *-lar* affiksining fonetik variantlari ko‘pligi [Khidralieva. 2020: 1177-1182].
2. Shevada *-lar* affiksi hurmat ma’nosini ifodalamasligi.
3. Boshqa shevalarda uchramaydigan qo‘shko‘plikning mavjudligi.

Xulosa qilib aytganda, shevadagi ko‘plik shakllari ko‘pgina xususiyatlari bilan boshqa shevalardan farq qiladi. Shevada ko‘plik shakllarining xususiyatlarini atroflicha o‘rganish uning adabiy til bilan bo‘lgan munosabatini va boshqa shevalardan ajralib turuvchi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – Б. 47.
2. Muhammadjonov Q. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiysi. – Toshkent: FAN, 1983. – B. 16.
3. Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – B.149.
4. Xidraliyeva Z.R. Vowel harmony features in ikan dialect //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 10, Issue 12, December 2020. pp. 1177-1182.